

## QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM TIZIMI

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish orqali yoshlarni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash hamda raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilayotgan innovatsion texnologik yangilanishlar – eng zamonaviy bilim va malaka talablarini o'zida jamlagan yetuk mutaxassis, o'z ishiga vijdonan yondashadigan xodim bilan ta'minlansa samarasini beradi.



Buning uchun avvalambor, tashabbuskor islohatchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarni tarbiyalashimiz zarur.

2020/2021- o'quv yilida Qashqadaryo viloyatida hozirgi zamon talablariga javob beradigan malakali yosh kadrlarni tarbiyalash uchun 6 ta oily ta'lim tashkilotlari (ulardan 1 tasi universitet) faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan 4 tasi hududiy filial hisoblanadi.

### *Ma'lumot uchun:*

**Oliy ta'lim** – umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga shakllanadi hamda 2 bosqichga ega;

- **Bakalavriat** – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida 4- yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir;
- **Magistratura** – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida 2- yil davom etadigan oily ta'limdir.



## Oliy ta'limning asosiy ko'rsatkichlari

2020/2021- o'quv yilida viloyatdagi oliy ta'lim tashkilotlarida 27 835 nafar talabalar ta'lim olmoqdalar. Ularning 12 606 nafari qizlar .

### Qashqadaryo viloyatidagi oliy ta'lim tashkilotlaridagi talabalar soni dinamikasi, (o'quv yilida, nafar)



Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2020 -yilda 5193 nafar talaba oily ta'lim tashkilotlarini bitirdilar. Ulardan kunduzgi bulimda 4079 nafar, sirtqi bulimda 1114 nafar talaba tashkil etdi.

### 2020- yilda oliy ta'lim tashklarining bitiruvchilari soni dinamikasi (o'quv yilida, nafar)



### Qashqadaryo viloyatida Oliy ta'lim bakalavriat bosqichining asosiy ko'rsatkichlari

2020/2021- yilida oily ta'lim tashkilotlarining bakalavriatidagi talabalar soni 27 212 nafardan iborat. Ularning 18 844 nafari kunduzgi bo'limda, qolgan 8 372 nafari sirtqi bo'limda ta'lim olmoqdalar.




Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichida ta'lim olayotgan talabalarining 4832 nafari davlat granti bo'yicha o'qimoqdalar.



Yangi o‘quv yilida oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriatiga jami 7541 nafar talaba qabul qilindi. Ularning 4 663 nafari kunduzgi, 2 878 nafari sirtqi.

2020- yilda bakalavriat bosqichini 5030 talabalar tamomladilar. Ulardan 1196 nafari davlat granti bo‘yicha ta’lim olgan talabalar hisoblanadi. Bitiruvchi talabalarning 2453 nafar qizlardan iborat.

### **Oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichiga qabul qilingan va bitirgan talabalar soni (o‘quv yilida, nafar)**



2021- yilda viloyatdagi oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichini 5205 nafar talaba bitirishi kutilmoqda. Ularning 4109 nafari kunduzgi bo‘lim, qolgan 1096 nafari sirtqi bo‘lim talabalari sanaladi.

### **Oliy ta’limning Magistratura bosqichi**

2020/2021- o‘quv yilida Qashqadaryo viloyatidagi oliy ta’lim tashkilotlarida magistratura bosqichlari mavjud. Ularda 619 nafar talabalar kunduzgi bo‘limda ta’lim olmoqdalar. Magistrning 220 nafari davlat granti bo‘yicha o‘qimoqdalar. Jami magistratura bosqichidagi talabalarning 298 nafari qizlardan iborat.





**O'g'il bolalar**  
**321**



**Qiz bolalar**  
**298**



**Jami**  
**magistrlar**  
**619**

Yangi o'quv yilida magistratura bosqichiga 335 nafar talabalar qabul qilindi. Ulardan 204 nafari, ya'ni davlat granti bo'yicha ta'lim olishga sazovor bo'ldilar. Magistrarning 176 nafari qizlar tashkil etadi.

2020- yilda 163 nafar talaba oiliy ta'lim tashkilotlarida magistratura bosqichini bitirdilar. Joriy 2021- yilda oliy ta'lim tashkilotlarini 284 nafar magistrlar bitirishi kutilmoqda.

### **Ma'lumot uchun:**

*Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni* – oliy ta'lim tashkilotlarida o'qiyotgan va o'quv yili boshida ro'yxatda turganlar.

*Oliy ta'lim tashkilotlarini bitirganlar* - ta'lim kursini to'liq tugatgan vategishli ma'lumot (mutaxassislik) ga ega bo'lgan shaxslar soni.






## Qashqadaryo viloyatida oliy ta'lim tashkilotlarining quyidagi turlari faoliyat ko'rsatmoqda



**Universitet** - oliy va undan keyingi ta'lim uchun ta'limni bir necha yo'nalishda beradi, turli sohalardagi mutaxassislarning malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi, fanning turli yo'nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib boradi, ilm sohasi bilan chambarchas bog'liq ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

**Institut** – oliy ta'limdan keyingi o'quv dasturlarini bajarishni ta'lim va fanning ma'lum bir me'yorida amalga oshiradi. Mutaxassislarni ma'lum bir sohada qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi, fundamental va amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.





Oliy ta'lim tashkilotlaridagi jami 27835 nafar talabalardan 25997 nafari o'zbek tilida, 1838 nafari rus tilida.

2020/2021- o'quv yilida Qashqadaryo viloyatidagi oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga 1455 nafar (shtatdagi xodimlar) professor-o'qituvchilar ta'lim bermoqdalar. Bundan tashqari 100 nafar pedagog-xodimlar o'rindosh bo'lib faoliyat olib bermoqdalar.

Pedagog-xodimlardan 47 nafari fan doktori, 255 nafari fan nomzodi ilmiy darajasiga ega, hamda 31 nafari professor, 169 nafari dotsent ilmiy unvonini olishga sazovor bo'lgan.



Viloyatdagi oliy ta'lim tashkilotlarida 115 nafar pedagog-xodimlar *informatika va kompyuter texnologiya fanidan* ta'lim bermoqdalar. Ushbu tashkilotlarda 73 ta kompyuter sinflari mavjud bo'lib, ularda 2055 ta kompyuter mavjud.





Qashqadaryo viloyati statistika  
boshqarmasi Ijtimoiy soha  
statistikasi bo'limi

Telefon: (75) 221- 09- 71

